

---

## Har bir murojaatlar alohida nazoratga olindi

Bugun shahar hokimligi tomonidan tashkillangan sayyor qabulda Farg'ona shahar hokimi Vosiljon Nazarov, sektor rahbarlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Xalq qabulxonasining shahar bo'limi mudiri Tavakkaljon Rahimovlar ishtirok etishdi.

"Shodiyona" mahallasida ellik nafardan ortiq fuqarolarning murojaatlari mas'ul rahbarlar ishtirokida o'rganildi. O'n nafardan ortiq fuqarolarning murojaatlari ijobiy hal qilindi.

Kelib tushgan murojaatlarni o'rganish va natijasi bo'yicha mualliflarga ma'lum qilish uchun masalaga daxldor xodimlar, korxonalar, tashkilot va bo'limlarga tegishli topshiriqlar berildi. Qabul so'ngida yuridik va jismoniy shaxslardan tushgan murojaatlarning o'rganilganlik holati hamda ijobiy hal etilishi bo'yicha tanqidiy tahlil qilindi.

Farg'ona shahar hokimligi Axborot xizmati

2023-04-26 10:39:15